

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashi majlisining
6/2025 - sonli bayonnomasi

Majlis o‘tkazilgan sana:

“ 17 ” Dekabr 2025 yil

Majlis o‘tkazilgan joy:

Toshkent shahar- 11, Markaz-14, 27 uy.

Majlis o‘tkazilgan vaqt:

soat 15-00

Majlisni o‘tkazish shakli:

So‘rovnoma yo‘li bilan

Kuzatuv kengashi majlisi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 78-moddasiga muvofiq, Kuzatuv kengash a‘zolari tashabbusi bilan chaqirildi.

Kuzatuv kengashi a‘zolari majlis bayonnomasini imzolash orqali kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berishadi.

Majlisda ishtirok etishi lozim bo‘lgan kuzatuv kengashi a‘zolari: Islamov Bobir Farxadovich, Samandarov Tal‘at Yo‘ldoshevich, Xalimov Adhambek Jamoliddin o‘g‘li, Pulatov Nodirbek G‘ulomovich, Bart Lucarelli (mustaqil a‘zo), Nazarov Nodir Qaxarovich, Upushev Yerlan Yelemesovich, Ayxodjaev Rustam Irkinovich, Raxmatov Alisher Xamzaevich.

Mazkur majlisda 9 ta Kuzatuv kengashi a‘zolaridan 7 tasi so‘rovnoma orqali qatnashdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 78-moddasida belgilangan Kuzatuv kengashi majlisini o‘tkazish kvorumi (77,7%) mavjud.

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining 2025-yil 5-dekabrdagi 10.6/6-25-1108 sonli “O‘zbekko‘mir” AJ bosh direktori Dusmatov Nodirbek Uktamjanovichga nisbatan intizomiy javobgarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi qarorini ko‘rib chiqish.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining 2025-yil 5-dekabrdagi intizomiy javobgarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi qarori ko‘rib chiqish uchun kiritildi.

Qarorga asosan:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari va tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri tomonidan tasdiqlangan 2025/2026 yillar kuz-qish davrida mahalliy ko‘mir mahsulotini aholi iste‘molchilarga yetkazib berish reja-grafigi tasdiqlangan bo‘lib, 2025-yilning 19-noyabr holatiga belgilangan rejadan 41 ming tonna ko‘mir ko‘p qazib olib, joylarga yetkazilgan bo‘lsa-da, Andijon viloyatiga 16 ming tonna, Namangan viloyatiga 9, Farg‘ona viloyatiga 3,7 ming tonna rejadan kam ko‘mir yetkazib berilganligi sababli, ushbu hudud aholisining davlat va hukumatga qarshi norozilik

kayfiyati shakllanishiga sababchi bo'lgan. Vaholanki, ushbu davrda Buxoro viloyatiga 7,1 ming tonna, Jizzax viloyatiga 3,2, Qashqadaryo viloyatiga 6,5, Navoiy viloyatiga 4,3, Surxondaryo viloyatiga 7,1, Sirdaryo viloyatiga 5,7, Toshkent viloyatiga 9 ming tonna ko'mir rejadani ortiqcha jo'natilganligi;

Shuningdek, N.U. Dusmatov ishni to'g'ri tashkil etmagani oqibatida 2025-yilning oktabr oyida aholi uchun tarkibi 50 foizi tog' toshlaridan iborat bo'lgan o'ta sifatsiz 335 tonna ko'mirni "Ko'mir ta'minot" MChJning Urganch tumani omboriga jo'natib, jamiyatga va aholi manfaatlariga zarar yetkazganligi;

Bundan tashqari N.Dusmatov mansab vakolatini suiiste'mol qilib, 2025-yil 4-avgustdagi 270-k-sonli buyrug'i bilan A.Asatullaevni marketing va mahsulot yetkazib berish bo'limi boshlig'i lavozimiga ishga qabul qilingan. Vaholanki, marketing va mahsulot yetkazib berish bo'limi boshlig'i lavozimi yo'riqnomasining 1.4-bandiga ko'ra, ushbu lavozimga marketing yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga va ko'mir sanoatida rahbarlik lavozimlarida 5 yildan kam bo'lganda ishga qabul qilinishi belgilab qo'yilganligiga qaramasdan lavozim yo'riqnomasining 1.4-bandiga zid ravishda ishga qabul qilganligi ko'rsatib o'tilgan.

Shu munosabat bilan "O'zbekko'mir" AJ bosh direktori N.Dusmatov o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmasdan mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygani sababli unga nisbatan intozomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish va qarorni jamiyat kuzatuv kengashiga kiritilishi ko'rsatib o'tilgan.

Qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining topshiriqlari ijrosini tashkil etish hamda aholiga ko'mir mahsulotlarini yetkazib berishda nazoratning sifati past bo'lganligi uchun jamiyat bosh direktori N.U. Dusmatovga hayfsan berilishi taklif qilindi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7

Qarshi - 0

Betaraf - 0

Kun tartibidagi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312 va 313-moddalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining topshiriqlari ijrosini tashkil etish va aholini sifatli ko'mir mahsuloti bilan ta'minlash ishlarini amalga oshirilishi ustidan nazoratning sifati past bo'lganligi uchun jamiyat bosh direktori Dusmatov Nodirbek Uktamjanovichga nisbatan hayfsan e'lon qilinsin.

2. "O'zbekko'mir" AJ Ijroiya organi o'n kunlik muddatda marketing va mahsulot yetkazib berish bo'limi boshlig'i A.Asatullaevni egallab turgan lavozimiga mosligi masalasini ko'rib chiqilsin.

3. Mazkur bayon nusxasi uch kunlik muddatda O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasiga yuborilsin.

Kuzatuv kengashi raisi:

Islamov B.F.




Kuzatuv kengashi a'zolari:


Samandarov T.Y.




Xalimov A.J.




Pulatov N.G'.



Nazarov N.K.



Ayxodjaev R.I.



Raxmatov A.X.

